

## “Tosh davri arxeologiyasi” o’quv amaliy kursi tashkil etildi

O’zR FA Milliy arxeologiya markazi Samarqand arxeologiya institutida “Tosh davri arxeologiyasi” o’quv amaliy kursi tashkil etildi. Respublikamizda ilm fan va oliy ta’lim o’rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, yoshlarni ilmiy tadqiqotlarga yo’naltirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash maqsadida Samarqand arxeologiya instituti katta ilmiy xodimi B.Sayfullayev tomonidan eksprement tarzida tashkil etilgan o’quv amaliy kursi 18-yanvardan 18-martga qadar davom etib, unda O’zR FA Milliy arxeologiya markazi, Samarqand arxeologiya instituti, FA Qoraqalpog’iston bo’limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti, Samarqand davlat universiteti doktorant va kichik ilmiy xodimlari ishtirok etishdi.

Kursda tosh davri arxeologiyasining o’ziga xos xususiyatlari xususan, toshlarni texnik-topologik jihatdan ajratish, ularni kameral qayta ishlash, tosh qurollarni tavsiflash, ilmiy muomalaga kiritish usullari va ularni tahlil qilish, J.Peligrin (texnologik uslub) hamda S.Tibualar (morfologik uslub) tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy usullar yordamida ibtidoiy davrga oid texnokomplekslarni o’rganish borasida amaliy mashg’ulotlar o’tkazildi.

Kurs ishtirokchilari o’quv amaliyot davomida Samarqand arxeologiya instituti bilan bir qatorda FA Qoraqalpoq bo’limi, O’zbekiston tarixi davlat muzeyi, Samarqand davlat universiteti fondlarida saqlanayotgan, tosh davriga oid yodgorliklardan topilgan tosh buyumlarni arxeologik jihatdan o’rganishdi. Amaliy kurs yakunida ishtirokchilarga sertifikat berildi.